

NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MATN TURLARINI YARATISHNING BOSQICH VA DARAJALARI MOHIYATI

Nuriddinova O'Imasoy Vapoyevna

Toshkent davlat pedagogika universiteti Umumiy tilshunoslik kafedrası o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7694313>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili ta'limining o'ziga xos funksiyalari, kontekst, matn leksemasining konseptual asoslanishi, nutqiy birliklar, nutqiy ko'nikma, nutqiy kompetensiya elementlari, og'zaki va yozma nutq o'stirish, ijodiy va kreativ fikrlash hamda o'quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatini takomillashtirish bo'yicha tilshunos, metodist olimlar hamda psixologlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ona tili ta'limi, leksik birliklar, mantiqiy mushohada, og'zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko'nikma, nutqiy kompetensiya, ta'limiy o'quv topshiriqlari, ilg'or texnologiyalar, kreativ yondashuv, ijodiy tafakkur, tasviriy ko'rgazmalar, matn turlari ustida ishlash.

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini matn turlari orqali rivojlantirish o'quv darsligi va ta'limiy vositalar ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. 2019-2022- o'quv yillari mazmun, ko'rinish, shakl jihatdan yangi tuzilgan "Ona tili" darsliklari o'quvchilarning nutqiy kompetensiya elementlarini matn turlari orqali yuqori darajada takomillashtirishga xizmat qiladi. Xususan, 8-sinf "Ona tili"¹ darsligida ma'lumotnoma, ijodiy-tavsifiy matn, inshoning mavzu va mazmuniga ko'ra turlari, matn, mumtoz matn va lug'at bilan ishlash, tilshunoslikning sintaksis bo'limi haqida umumiy tushuncha, sodda gap, qo'shma gap, gap bo'laklari yuzasidan tahlil, gapda tinish belgilarning ishlatilishi, uyushiq bo'lakli gaplarda umumlantiruvchi so'z va unda ohang hamda tinish belgilarning qo'llanilishi, og'zaki nutq mahorati bo'yicha nazorat ishlarini olish bo'yicha mavzular, mashq, topshiriqlar, savollar, ilmiy, badiiy, rasmiy matnlar ustida ishlash berilgan. Aytish joizki, 8-sinf "Ona tili" darsliklariga tanlangan o'zbek va jahon mutafakkirlari, olimlari, buyuk siymolarning hikmatli so'zlari, shaxsiy-hayotiy qarashlari dars davomida ifodali o'qilib, o'zaro muhokama qilinsa ulardagi aqliy-tarbiyaviy tomonlama fikriy taraqqiysi rivoj topadi.

"Yangi avlod darsliklari ta'lim mazmunining yangi modellari negizida yaratilishi, unda o'quvchini pedagogik qo'llab-quvvatlash, uzluksiz rivojlantirish, mustaqil fikrlashga odatlantirish, aniq hayotiy nuqtai nazarni qaror toptirish, yoshlarni eng zamonaviy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy, iqtisodiy-huquqiy yo'nalishdagi axborotlar bilan rivojlantirishga erishish bugungi kunda davlat siyosatidagi ustuvor maqsaddir"². O'quvchilarning nutqi o'sib, bilimi kengayishi ona tili darsliklarda berilgan matnlarning dars jarayonida tahlil qilinishi, munosabat bildirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. "Ona tili o'qitish metodikasi" nomli darslikda ona tili mashg'ulotlarida matn ustida ishlash publitsistik,

¹ Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf uchun darslik. To'rtinchi nashr. Toshkent. –2019. –142-b.

² Сафарова Р., Мусаев У., Мусаев П., Юсупова Ф., Нуржанова Р. Ўзбекистон Республикасида умумий ўрта таълим стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари, уларни татбиқ этиш йўллари. – Т.: Фан, 2005. – 85-86-б.

ilmiy, badiiy matn va insho va hujjat matnini yozdirish yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan. "Matnlar uslub jihatdan rang-barangdir. Ona tili mashg'ulotlarida badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy-idoraviy matnlardan foydalaniladi. Har bir uslub o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ma'lum bir til meyorini talab etadi"³. Ona tili darslarida har bir uslubga matnlarning o'ziga xos xususiyatlarini puxta o'rganib matn turlarini yaratish ularda hosil qilingan bilim, ko'nikma, malakalarning rivojida aks etadi. "O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan o'quvchi egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi: a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligini aniqlash; b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, konkret, mavhum va hokazo); d) tavsifning mavzuga muvofiqligini va tasnif qiymatini aniqlash; e) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash; f) imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash. Ona tili ta'limi jarayonida pedagogikaning ta'lim va tarbiya birligi tamoyiliga rioya qilinadi hamda izchil amalga oshirib boriladi"⁴. O'zbek tili ta'limi tarixiga oid adabiyotlar, hujjatlar tahlili shuni o'zgaralar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bolaning og'zaki bayon qilinayotgan o'zgaralar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr o'zgaralar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qila olish darajasini aniqlaydi⁵.

O'quvchilarning matn tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha B. To'xliyev boshchiligida chop etilgan "O'zbek tili o'qitish metodikasi"⁶ nomli matn yaratishning bosqichli tizimi va 4 moduli bo'yicha izoh berilgan. So'z tanlash faoliyati, so'z birikmasini hosil qilish faoliti, gap tuzish faoliyati, matn yaratish faoliyati bayon qilingan.

Metodika fanida matnning ikki xil yo'l bilan qayta tasvirlanishi qayd qilinadi. Bular:

a) so'z bilan tasvirlash;

b) grafik tasvirlash⁷. Ona tili darslarida 8-sinf o'quvchisi darslikda berilgan rasmni so'z orqali tasvirlashda biror rasmga, biror tabiat tasviri manzarasiga qaragan holda o'z fikrini muayyan darajada qayta bayon qiladi, lekin grafikli tasvirlarda ifodalangan mazmunni qayta yaratish ba'zi o'quvchilar uchun murakkablik, qiyinlik qilishi tabiiy jarayondir. Shu bois, grafiklarga qarab matnni qayta yaratish o'quvchilarga uyga vazifa shaklida berilishi maqsadga muvofiqdir. Bu tasvirlashning uyga vazifa qilib berilishi o'quvchi ko'proq o'ylab mulohaza qilishga zamin yaratadi. So'z bilan tasvirlash o'ziga xos murakkab ish turi bo'lib, bunda asarda tasvirlangan voqea, qahramon yoki manzarani so'z yordamida aniq qayta tiklash ko'zda tutiladi. Matn tasvirining to'laqonli bo'lishi o'quvchilarning matnni, unda bayon etilgan voqeani, qatnashuvchi shaxslarning tashqi ko'rinishini, fe'l-atvorlariga xos xarakterli xususiyatlarni

³ G'ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. - T.: "Fan va texnologiya", 2012, 317-b

⁴ Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (Ona tili, Adabiyot, O'zbek tili). - T.: 2009.-4-5-b.

⁵ Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) [Matn] : darslik. - Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. 66-424 b.

⁶ To'xliyev B., Shamsiyeva M., T. Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. -41b.(184)

⁷ Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi / Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. - T.: Noshir, 2009.- 98-b

teran tasavvur qilinishiga bog'liq. So'z bilan tasvirlash o'quvchilar nutqini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida so'zlarni to'g'ri tanlash va talaffuz qilishni talab etadi.

“Muhokama matnning asosiy qismida *birinchidan, ikkinchidan, fikrimcha, bizningcha, shuning uchun, chunki* kabi kirish so'z va bog'lovchilar, xulosa qismida, *xullas, shunday qilib, shunday ekan, demak* kabi kirish so'z va kirish birikmalaridan foydalaniladi”⁸. Ona tili darslarida o'quvchilarga muhokama matniga xatboshi va jumlni semantik, grammatik, stilistik qurilishini ta'minlovchi kirish so'zlar, so'zlarni bir- biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan bog'lovchilarni, ko'makchilarni o'z o'rnida qo'llashni amaliy egallash ko'nikmasi talab darasida bo'lishi talab qilinadi. Buning uchun muhokama matni yozilishishi haqida ma'lumotga ega bo'lishi asosiy sanaladi.

References:

1. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. To'rtinchi nashr. Toshkent. – 2019.
2. Сафарова Р., Мусаев У., Мусаев П., Юсупова Ф., Нуржанова Р. Ўзбекистон Республикасида умумий ўрта таълим стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари, уларни татбиқ этиш йўллари. – Т.: Фан, 2005.
3. G'ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi.- T.: "Fan va texnologiya", 2012.
4. To'xliyev B., Shamsiyeva M., T. Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi / Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. – T.: Noshir, 2009.
6. Рихсиева М. Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларининг ўзбек тили дарсларида талабани матн тузишга ўргатиш: Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1998.

⁸ Рихсиева М. Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларининг ўзбек тили дарсларида талабани матн тузишга ўргатиш: Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1998. – 53 б.